

**BOBUR MIRZO ASARLARINI O'RGANISHDA TA'SVIRIY SAN'AT FANI
O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATI**

Paxratdinova Ulbolsin Kerimberdiyevna
Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

Kalit so'zlar: ta'sviriy san'at, fan o'qituvchisi, Bobur mirzo asarlari, interaktiv metodlar, pedagogik mahorat.

Ключевые слова: изобразительное искусство, учитель естественных наук, произведения Бабура Мирзы, интерактивные методы, педагогическое мастерство.

Key words: fine arts, science teacher, works of Babur Mirza, interactive methods, teaching skills.

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarini o'rganishda ta'sviriy san'at fani o'qituvchisining pedagogik mahorati haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В статье рассматривается педагогическое мастерство учителя изобразительного искусства при изучении творчества Захириддин Мухаммад Бабура.

Annotation: The article examines the pedagogical skills of a fine arts when studying the work of Zakhridin Muhammad Babur.

Mamlakatimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'z nutqida: "Alabtta, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ham katta-katta qadamlar qo'yilmoqda. Bu borada Yangi O'zbekistonning yangi maktablari – Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar ko'lami kengayib, ularda tehsil olayotgan o'quvchilar yo'qori natijalarga erishilmoqda" – deya ta'kidlagan edi. [1.]

Darhaqiqat, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda biz faxr bilan tilga oladigan ajdodlarimizning o'rni katta. Shunday tarixiy shaxslardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur hisoblanadi. Bobur mirzo hayoti davomida nafaqat adabiyot balki ta'sviriy san'atning rivojiga ham katta hissa qo'shgan. Biz buyuk bobomizning xalqimiz uchun qilgan mehnatlarini soha bo'yicha fan o'qituvchilarining mahoratlari natijasida chuqur anglaymiz.

Adabiyot, ta'sviriy san'at orqali yosh avlodni estetik tarbiyalash, vatanparvarlik ruhida o'stirishda ta'sviriy san'at fani o'qituvchisining o'rni katta. Fan o'qituvchisi pedagogik mahoratiga suyangan holda mustaqil dars paytida, o'quvchilarni ART pedagogikasi orqali estetik tarbiyalash maqsadida, Bobur mirzo hayoti bilan bog'liq dars mashg'ulotini o'tadi. Buning uchun ko'rgazma qurollardan, rangli qog'ozlar, flamasterlar, rangli qalamlar, elektron doskalardan va yangi interaktiv metodlar foydalaniladi. Mustaqil darsni ta'sviriy san'at fani o'qituvchisi adabiyot fani o'qituvchisi bilan hamkorlikda

o'tkazsa ham bo'ladi. Dars avvalida, adabiyot fani o'qituvchisi Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar aytib o'tadi. Buyuk mutaffakirning "Boburnoma" shoh asari tarixiy-biografik ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda ham o'zining bebaho qadrini yo'qotmagan. Asardagi ezgulik g'oyalarini o'zida jamlagan g'azalidan parchalar keltiradi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topgusidir,
Har kimki, jafo qilsa, jaho topgusidir,
Yaxshi kishi ko'rmagay hargiz yomonlig',
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topgusidir [2].

Adabiyot fani o'qituvchisi o'z fikrlarini yakunlagandan so'ng, ta'sviriy san'at fani o'qituvchisi Bobur mirzoning ta'sviriy san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlarni keltiradi: "Maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan 6-sinf "Ta'sviriy san'at" darsligidagi ma'lumotlarga suyanadigan bo'lsak, Boburiylar sulolasi "Hindiston miniatyura" san'atining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Samarqanddan, Tabrizdan kelgan rassomlar hind miniatyurasi bilan uyg'unlikda ta'sviriy san'atni rivojlantirgan. "Boburnoma" asariga oid miniatyuralar Kamoliddin Begzod, Shoh Muzaffar, Boysunqur mirzo, Haydar Mirzo, Farruxbeklar tomonidan chizilgan. Ushbu san'at asarlari hozirgi kunda Moskvada, Londonda va Vashingtonda saqlanmoqda" – deya ta'kidlab, Bobur mirzo hayotiga oid videoroliklarni namoyish qiladi. Bildirilib o'tilgan ma'lumotlardan so'ng, sinfda interaktiv usulda darsni mustahkamlash uchun rangli qalamlar, flomasterlardan foydalangan holda o'quvchilarga rasmlar chizdiriladi. Dars davomida o'quvchilar baholanib boriladi. Mustaqil dars yakunida erkin mavzuda uyga vazifalar beriladi va dars yakunlanadi.

Xulos qilib aytganda, Bobur mirzo nafaqat adabiyot balki ta'sviriy san'atning rivojiga ham katta hissa qo'shgan. O'quvchilarga mavzuga oid ma'lumotlarni chuqurroq o'rgatish uchun quyidagi tavsiyalarni bildirib o'tamiz:

*Birinchi*dan, Zahiriddin Muhammad Boburning yubeley sanalari oldidan "Bobur mirzoning ta'sviriy san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasi" mavzusida ochiq dars o'tish;

Ikkinchidan, sinf o'quvchilari o'rtasida rasmlar tanlovi o'tkazishni o'rinli deb hisoblaymiz.

Ta'sviriy san'at fani o'qituvchisi o'zining pedagogik mahoratidan kelib chiqib, darsni yanada takomillashgan holda o'tishi mumkin. Dars jarayonlariga yangicha yondashuv kelajakda o'zining ijobiy natijasini ko'rsatishi aniq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.yuz.uz
2. www.ziyonet.uz
3. Q.Mirahmedov., B.Karimov., I.Nurullayev., “Súwretlew óneri”., 6-klass ushın sabaqlıq., T – 2017. Betler – 35-39.
4. Elektron kitoblar., Buxoro davlat universiteti., Pedagogik mahorat 2024-yil 11-son 2-seriya Pedagogika nazariyasi va tarixi.

